

Inson resurslarini rivojlantirish uchun stipendiya dasturi (JDS)

Inson resurslarini rivojlantirish uchun stipendiya dasturi (JDS) Yaponiya davlatining grant dasturi bo'lib, dasturning maqsadi grant oluvchi mamlakatlarda inson resurslarini rivojlantirishga yordam berishdan iborat. JDS loyihasi kelajak rahbari sifatida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish rejalarini amalga oshirishda ishtirok etishi kutilayotgan yuqori malakali yosh xodimlarga (asosan hukumatlar) qaratilgan.



JDS stipendiatlari Yaponiya bilan keng bilimga ega bo'lgan mamlakatlar va Yaponiya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni kengaytirishga yordam beradi.

JDS loyihasi Yaponiya universitetlarida ingliz tilida ikki yillik magistratura ixtisosligi bo'yicha o'qishni taklif etadi. JDSning o'quvchilari texnologik muhitda bevosita ilg'or bilimlarni o'rganish hamda keng inson tarmoqlarini yaratish uchun maxsus imkoniyatga ega bo'ladilar.

Nomzodlarga qo'yiladigan talablar

| | |
|--------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Fuqaroligi | O'zbekiston Respublikasi fuqarosi |
| Yoshi | Yoshi 25 dan 40 yoshgacha ((2019 yil 1 aprel holatiga ko'ra) 2 aprel 1978 yil va undan keyin, 1994 yil 1 aprel yoki 1 aprelgacha tug'ilganlar). O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan rasman e'tirof etilgan oliy o'quv yurtida bakalavr darajasiga ega bo'lish. Qo'shimcha shartlar: |
| Ma'lumoti | Nagoya universiteti ("Huquqiy tizimni takomillashtirish" komponenti) Qonunchilik bo'yicha bakalavr darajasini talab qilish (xalqaro huquqiy munosabatlarda bakalavriat maqbuldir) Tokio universiteti ("Iqtisodiy infratuzilmani takomillashtirish" komponenti) Muhandislik sohasida bakalavr darajasiga ega bo'lish kerak |
| Ish staji | Maqsadli tashkilotlardan birining doimiy ishchisi bo'lish (shartnoma asosida ishlaydigan vaqtinchalik ishlaydigan xodimlar yoki yarim vaqtda ishga joylashish asosida chiqarilgan bundan mustasno). Tashkilotda kamida 2 yillik to'liq ish tajribasiga ega bo'lish. (Nomzod turli xil maqsadli bo'linmalarda ishlagan bo'lsa, umumiy ish tajribasini jamlaydi). |
| Ingliz tilini bilish darajasi | Ingliz tilida yaxshi og'zaki va yozma darajaga ega bo'lish kerak 5,5 va undan yuqori IELTS baliga ega bo'lishi kerak / TOEFL test tizimida 500-550 ball (Sertifikatning mavjudligi shart emas). |
| Sog'ligi to'g'risidagi holat | Jismonan va aqlan sog'lom bo'lish kerak. |
| Diskvalifikatsiya | Quyidagi nomzodlar JDS loyihasida ishtirok etish uchun ariza bera olmaydi. Xorijiy jamg'armalar tomonidan hozirgi kunda stipendiya olayotgan yoki olishi kutilayotganlar; Chet eldagi OTMda bakalavriat, magistr yoki doktorlik darajasini grant asposida olganlar yoki o'zlarining mablag'lari hisobidan o'qiganlar; Qurolli kuchlar safida yoki muqobil harbiy xizmatda xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar va harbiylar; Vaqtinchalik ish bilan ta'minlanganlar. |

Boshqa

Ayollardan kelib tushadigan arizalar kutib qolinadi . Grant olish uchun nomzod jismonan va ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi kerak: JDS loyihasiga ariza topshirish vaqtida va ta'limdan so'ng Yaponiyadan qaytganidan keyin. Grant olgach, JDS Akademiyasining o'zi ro'yxatdan o'tishi kerak bo'lgan universitet dasturiga to'liq bag'ishlanishi kerak. Bundan tashqari, agar u Yaponiyaga ketgunga qadar sog'ligida jiddiy holatlar (masalan, homiladorlik va h.k.) shuningdek, salomatlik holatida sezilarli farqlar mavjud bo'lsa va universitet bunday holatda ta'lim maqsadiga muvofiqlashishiga to'sqinlik qilayotganligini aniqlasa, stipendiya universitet boshqaruvi qaroriga asosan to'xtatilishi mumkin. JDS bitiruvchilari JDS shartnoma imzolashi va O'zbekiston hukumati tomonidan belgilab qo'yilgan majburiyatlarni o'z zimmlariga olishlari kerak.

JDS bitiruvchilari o'qish tugaganidan so'ng O'zbekistonga qaytib kelishlari va yuqorida aytilgan shartnomaga asosan O'zbekiston rivojiga hissa qo'shadigan maqsadli tashkilotlarda kamida uch yil ishlash.

Arizalari qabul qilish muddati: 31 oktyabr (chorshanba) 2018 yilga qadar

Ariza hujjatlari hech qanday sabablarga ko'ra qaytarilmaydi. Belgilangan muddat tugagandan so'ng to'ldirilgan va topshirilgan arizalar ko'rib chiqilmaydi.

Ushbu dastur haqida batafsil ma'lumotni quyidagi havola orqali bilib olishingiz mumkin:

<http://jds-scholarship.org>